

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari .....	444
<b>I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva</b>	
Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish .....	448
<b>M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva</b>	
O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi .....	455
<b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>	
Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....	458
<b>O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova</b>	
The structure of speech acts in various types of discourse .....	462
<b>X.M.Sotvaldieva</b>	
Paremiologiya fan sifatida .....	467
<b>A.E.Botirova</b>	
Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar .....	473
<b>R.Radjabov</b>	
Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar .....	478
<b>M.N.Raxmanova</b>	
Texnik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni tanlash usullari .....	482
<b>U.B.Almaz, O.X.Barziyev</b>	
Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi mazmuniy mushtarakliklar .....	486
<b>D.Sh.Islomov</b>	
His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis Izard talqinida .....	493
<b>M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev</b>	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni (nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida).....	498
<b>G.A.Saydaliyeva</b>	
Geshtaltlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....	501
<b>G.N.Isakova</b>	
Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....	506
<b>J.J.Egamberdiyev</b>	
Lug'at zamon va davr elchisi .....	511
<b>Sh.Sh.Zarmasov</b>	
Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili .....	515
<b>G.P.Nazarova, F.B.Alimova</b>	
"Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazonalizmlarning qo'llanilish tadqiqi.....	522
<b>S.A.Mannonova</b>	
Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari .....	526
<b>N.K.Ergasheva</b>	
Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context .....	529
<b>A.K.Usmonov</b>	
Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari .....	533
<b>N.K.Abbasova</b>	
Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms .....	538
<b>D.G.O'rinboyeva</b>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim mulohazalar .....	542
<b>N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova</b>	
Promoting oral communication through reading integration.....	545
<b>Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашурова</b>	
Когнитивный подход к анализу художественного текста .....	550



UO'K: 811.161.42:439.3

**O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA BAYRAM BILAN BOG'LIQ LEKSIK BIRLIKLAR TADQIQI****ИЗУЧЕНИЕ ПРАЗДНИЧНЫХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ****STUDY OF HOLIDAY-RELATED LEXICAL UNITS IN UZBEK AND GERMAN LANGUAGES****Kaxarova Mavluda<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti professori**Yunusaliyeva Nozima<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti talabasi[ORSID ID 0009-0006-6403-4551](https://orcid.org/0009-0006-6403-4551)**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada o'zbek va nemis tillarida „Navro'z“ va „Ostern“ (Pasxa) bayrami bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturologik jihatdan tahlilga tortiladi, hamda ularning o'xshash va farqli tomonlari o'zbek va nemis tillari misolida ochib beriladi.*

**Аннотация**

*В данной статье будет проведен лингвокультурологический анализ лексических единиц узбекского и немецкого языков, связанных с праздником Науруз и „Остern“ (Пасха), а также выявлены их сходства и различия на примере узбекского и немецкого языков.*

**Abstract**

*This article will provide a linguistic and cultural analysis of the lexical units of the Uzbek and German languages associated with the holiday of Navruz "and,, Ostern" (Easter), as well as identify their similarities and differences using the example of the Uzbek and German languages.*

**Kalit so'zlar:** yangi kun, teng kunlik, katta navro'z, kichik navro'z, sumalak, Ostern(Pasxa) bayrami, Gregorian kalendar, Fisih, Merri Fisih.

**Ключевые слова:** новый день, равнод дентвие, большой навруз, малый навруз, сумалак, остерн (Пасха) праздник, григорианский календарь, фисих, светлая фисих.

**Key words:** New day, Equinox, major Navruz, minor Naruz, Sumalak, Ostern(Easter) holiday, Easter, Merry Easter, Gregorian calendar.

**KIRISH**

Dunyo yaralibdiki, insoniyat hayotida ikki tuyg'u hamisha ustunlik qiladi. Biri shodlik bo'lsa, ikkinchisi esa qayg'udir. Shodlik bu yaqinlarimiz yuzida tabassum ko'rish, birga vaqt o'tkazish va biror bir tadbirni nishonlashdir. Insonlar bunday kunlarni bayram deb ataydilar. Bayram kishilarni o'zaro birlashtirib, qalblarimizga ilqlik nurini, shodlikni baxsh etadi. Bayramlar eng qadimiy davrlardan boshlab inson hayotining eng muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ularsiz inson hayotini mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Bayramlar xalq hayotining eng yaxshi va go'zal qirralarini aks ettiruvchi ko'zgudir.

„Bayram xalqning shodlik va xursandchilik kuni“, - degan edi sharqning buyuk olimi Mahmud Koshg'ari. [1,178]

**ADABIYOTLAR TAHLILI METODLARI**

O'zbek va nemis xalqlarining bayramlari bilan bog'liq leksik birliklar o'zlarining o'xshash va farqli tomonlari bilan muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek milliy bayrami hisoblangan „Navro'z“

bayrami muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek „Navro'z - chinakam xalq bayrami, milliy o'zligimiz ko'zgusi, ma'naviy va madaniy hayotimizning ajralmas qismidir”.

Firdavsiyning „Shohnoma” asarida yangi yil (Navro'z) vujudga kelishi shoh Jamshid nomi bilan bog'lanadi. Shoh Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarni kasbga o'rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to'qitadi, hammom, uy, saroylar bunyod qiladi. Nihoyat, ishlari gurkirab, „meva” berganda bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko'tariladi. Bu haqida Firdavsiy quyidagilarni yozadi.

Taxt ko'kda charx urar misoli quyosh,  
Farmondor o'tirar, unda irg'ab bosh.  
Barcha jam, odamlar qarar taxtga  
Jaxon qoyil bo'lib shukuh - baxtiga. [ 2, 67]

Alisher Navoiy „Tarixi mulki ajam” nomli asarida ham Jamshidning buyuk kashfiyotlari so'ngida ulug' Navro'z ixtiro qilganligi bayon qilinadi. Beruniy keltirgan afsona bo'yicha ham Navro'z ulkan ishlar qilgan Jamshid shohga bog'lanadi. „Jamshid o'ziga arava yasab olgach, o'sha kuni aravaga chiqib oladi, jinlar va shaytonlar uni havoga ko'tarib, bir kunda Dunbovdan Bobilga olib boradilar. Odamlar bu ajoyib voqeani ko'rgach, o'sha kunni Hayit qiladilar va Jamshidga (aravada uchishga) taqlid qilib arg'umchoqlarda uchdilar”. [3,254]

Bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalardan shu narsa ayonki, Eron, O'rta Osiyo va Arabistonda „Navro'z” bayramini o'tkazish Ahamoniylar davrida (mill. avv. VI asrlar) keng tarqalgani ma'lum bo'ladi. Agar shunday bo'lsa, „Navro'z” deb nom olgan bu bayramning tarixi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi.

Tarixga nazar solsak, Pasxa (ivritcha – o'tmoq) - yahudiylar va xristianlarning bahor bayramidir. Qadimda ko'chmanchi semit qabilalari pasxani chorva mollarining bahorgi bolalash vaqtida bayram qilganlar. Bu qabilalarning yaqindan aloqada bo'lishi va dehqonchilik bilan shug'ullanishi natijasida pasxa o'rim-yig'im bayramiga aylangan. Pasxa yahudiylarning yillik bayramlari ichida eng e'tiborlisi bo'lgan. Bu bayram xristianlarning Pasxasidan farqli o'laroq, yahudiylarning Misrdagi Fir'avn qulligidan qutulib chiqqanlari (taxminan miloddan avvalgi VIII asr) munosabati bilan nishonlanadi. Xristianlikda bu bayram Isoning tug'ilishi to'g'risidagi rivoyat bilan bog'liq bo'lib, pravoslablarning asosiy bayrami hisoblanadi. Bahorgi tengkunlik va to'lin oydan keyingi birinchi yakshanbada nishollanadi. Bayram kunlari sanasini hisoblab chiqish uchun jadvallar (pasxaliya) tuziladi. Pasxa pravoslab cherkovida Yuliy taqvimi bo'yicha (eski hisobda) 22 - martdan 23 - aprelgacha bo'lgan davr; g'arbiy xristianlarda - Gregoriy taqvimi bo'yicha 26-martdan 23- aprelgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. [ 4,111]

Pasxa haqiqatan ham yilning eng uzun dam olish kunlarimi yoki issiq janubda qisqa dam olish uchun yetarli degan savollar doimo berib kelingan. Rojdestvo bezaklarining yulduzlarini olib tashlash va ularni gullaydigan shoxlardagi chiroyli dekorativ tuxumlar bilan almashtirish uchun sabab bo'ladi. Pasxa eng muhim xristian bayrami hisoblanadi. Dunyo bo'ylab 2,2 milliard masihiylar ushbu kunni nishonlaydilar.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Navro'z - ( forscha- „yangi kun” ) - bahor bayrami hamda fors va turkiy xalqlarida yangi yilning birinchi kuni hisoblanadi. „Navro'z” so'zi forschadan tarjima qilinganda „yangi kun” ma'nosini beradi. Eron, shuningdek, Markaziy Osiyo va Kavkazda Navro'z 21-mart kuni, Qozog'istonda esa 22 - martda nishollanadi.

Miloddan avval qo'llanila boshlangan zardushtiylik kalendari bo'yicha fevral oyining birinchi kuni- „Kichik Navro'z (yoki ommaviy Navro'z) boshlangan, oltinchi kuni esa „Katta Navro'z” (maxsus Navro'z) uyishtirilgan. Sosoniylar davrida esa bu ikki „navro'z” birlashtirilib, kichik va katta „ Navro'z” o'rtasidagi kunlar bayram deb e'lon qilingan.

Vaqt o'tishi bilan Navro'z bayramini nishonlash bir oygacha cho'zilganligi kuzatiladi. Bu haqida Beruniy quyidagilarni bayon etadi: „Keyingi podshohlar bu oy, ya'ni farvardin mohning barcha kunlarini Hayitga aylantirib, ularni oltiga taqsim qildilar. Birinchi besh kun podshohlar uchun, ikkinchisi ulug' kishilar uchun, uchinchisi podshohlarning g'ulomlari uchun, to'rtinchi xizmatkorlari uchun, beshinchi xalq ommasi uchun, oltinchi cho'ponlar uchun bo'lgan. [6.257]

Navro'z bayrami O'zbekistonda juda keng nishollanadi. Ayniqsa, Navro'zda (pishiriladigan taom) ni pishirish va tarqatish tartibiga doir urf - odatlar kishilarni hamjihatlikka, bir jamoa ekanligini

## TILSHUNOSLIK

his qilishga, bir birini tushunishga undagan. Faylasuf olim Karim Mahmudov aytganidek, sumalak tayyorlash bu bir marosim, qozon boshiga yosh-u, qari, erkag-u ayol, barcha to'planadi. Odamlar tuni bilan uxlamay, ertalabgacha sumalak pishiradilar. Sumalak pishirish jarayonida odamlar, bir-birlarisiz, muhabbatsiz hayot qanchalik rangsiz ekanligini anglaydilar. [6.258]

Pasxa ramzlari va ularning ma'nosi nima?

Qo'zi o'z suruvi foydasiga qurbon qilingan. Pasxa – tug'ilishni, yangi hayotning boshlanishini anglatadi.

„Ostern“ (Pasxa) bayrami uchun tuxumlardan maxsus uyda rangli bezatilgan daraxtlar Fisih daraxtlari deb ataladi.

Fisih Jumasi (Karfreitag). Bayram juma kuni boshlanadi. Bu Kun, to'rt tomoshabin kabi, har bir kishi uchun rasmiy hafta oxiri. Bundan tashqari juma kuni bo'lgani kabi, Iso Masihning Xochga tortilishi sodir bo'lgani kabi, „sokin Juma“ ham deyiladi.

Kechqurun shanba kuni Fisih shanbasida qishning oxirgi timsoli bo'lgan olovlar yonadi. Ushbu olovda barcha salbiy hislar yoqilganligiga ishonib kelganlar.

Masihning yorqin yakshanba kuni Germaniyaning barcha aholisi bayramona oilaviy nonushta uchun yeg'iladilar. Va undan keyin bolalar bo'yalgan tuxumlar va kichik sovg'alar (Kinder surprise) izlash odat tusini olgan. Ularning ota-onalari bir kun avval yashirgan bo'ladilar.

Bu bayramning asosiy ramzlari, masalan, barcha katolik mamlakatlarida, va Germaniyada Pasxa quyoni va tuxumlardir.

Germaniyada o'sha kuni „Masih tirildi“ deb aytish odat emas va bu so'zni ishlatmaslikka harakat qiladilar. Faqatgina „Merri Fisih“ so'zlari orqali bir - birlari bilan salomlashadilar. [8.]

**XULOSA**

Til har bir millatning ko'zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilni onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o'z onasini ko'rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Zero, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek: „Har bir millatning dunyodagi borlig'ini ko'rstadurg'on oynai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir“.

O'zbek va nemis xalqlarining an'analari va urf-odatleri, jumladan bayramlari va ular bilan bog'liq leksik birliklarni tatbiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Asal Farhod kizi Khayriddinova. Bayramlar tarixi va ularning ilmiy - amaliy asoslari. (Oriental Art and culture scientific Methodical Journal / ISSN 2181 - 063x. Volume 3 Issue 4 / Dezember 2022. S 178.
2. B. Talapov. T. Qozoqov. B. Tillayev. Etnomadaniyat. Namangan 2022 S 40/ 41.
3. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik. Tanlangan asarlar. 1- Tom. S 254.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. O'z.ME. Birinchi jild. Toshkent 2005. S 111.
5. SCMR. Brockhaus in der SCM Verlagsgruppe GmbH. 2023 S 8.
8. 2024 uz. traasgpu. com.